


I. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 23372,1 mld. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,7 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 9380,2 mld. so'mni (104,7 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari 13347,9 mld. so'mni (103,0 foiz), qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 265,0 mld. so'mni (105,2 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 81,6 mld. so'mni (104,0 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,3 mld. so'mni (100,8 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 297,0 mld. so'mni (102,1 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)
hajmining taqsimlanishi, foizda**



■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliq xo'jaligi


■ Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar

■ Dehqonchilik

■ Chorvachilik


■ Xizmatlar (ovchilik bilan)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o'sish sur'atlari



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar (116,6 foiz), Mirishkor (107,8 foiz), Koson (107,4 foiz), Ko'kdala (105,9 foiz), Kasbi (105,9 foiz), Nishon (104,3 foiz), Chiroqchi (104,1 foiz), Shahrisabz (103,3 foiz), Dehqonobod (102,8 foiz), Qamashi (102,8 foiz), Muborak (102,7 foiz), Qarshi (102,4 foiz), Yakkabog' (101,4 foiz), Kitob (100,3 foiz), G'uzor tumani va Shahrisabz shaharda mos ravishda (100,2 foiz) o'sish kuzatildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiyligi hajmida Koson tumanining ulushi 9,7 foizni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda, Qamashi tumani 8,9 foiz, Kasbi tumani 8,5 foiz, Kitob tumani 8,0 foiz, Qarshi tumani 7,9 foiz va Yakkabog‘ tumani 7,9 foiz, Mirishkor tumani 6,9 foiz, G‘uzor tumani 6,7 foiz, Nishon 6,7 foiz, Shahrisabz tumani 6,6 foiz, Chiroqchi 6,6 foiz, Dehqonobod tumani 3,9 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi, eng kam ulush Shahrisabz (0,7 foiz) va Qarshi (0,8 foiz) shaharlarida qayd etildi.

**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi**

	<i>mldr. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati %</i>
Viloyat bo‘yicha:	23372,1	103,7
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	181,5	116,6
Shahrisabz	155,1	100,2
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	1564,8	100,2
Dehqonobod	911,1	102,8
Qamashi	2069,5	102,8
Qarshi	1842,3	102,4
Koson	2276,6	107,4
Kitob	1872,3	100,3
Mirishkor	1617,1	107,8
Muborak	1269,8	102,7
Nishon	1557,8	104,3
Kasbi	1986,8	105,9
Ko‘kdala	1123,2	105,9
Chiroqchi	1553,5	104,1
Shahrisabz	1554,7	103,3
Yakkabog‘	1836,0	101,4

**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi
mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**



- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

DEHQONCHILIK




2022- yilning yanvar-sentabrida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 9380,2 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 41,3 foizni tashkil qildi.

Hosil yig'imi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 402805 tonna sabzavot (100,8 foiz), 148534 tonna kartoshka (101,0 foiz), 159024 tonna oziqbop poliz (100,7 foiz), 144012 tonna meva va rezavorlar (103,1 foiz), 78214 tonna uzum (103,1 foiz) yig'ib olindi. Bundan tashqari 760215 tonnadan ortiq don ekinlari (108,7 foiz) ishlab chiqarildi.

**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdag'i
dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>
Don	621 093	105,3	85 307	100,8	53 815	2,2 m
Kartoshka	26 474	98,6	120 902	100,8	1 158	4,3 m
Sabzavotlar	91 203	103,0	308 323	100,2	3 279	95,6
Poliz	71 009	100,4	87 237	100,9	778	101,4
Mevalar va rezavorlar	75 913	103,5	64 981	102,0	3 118	121,7
Uzum	35685	100,9	40861	104,5	1668	118,8

**2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar kesimida asosiy turdag'i
mahsulotlarini ishlab chiqarish**





CHORVACHILIK

Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'ynishiga imkon yaratdi.

2022- yilning yanvar-sentabrida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 13347,9 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 103,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 58,7 foizni tashkil etdi.

2022- yilning 1- oktabr holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,8 foiz (jami 1687,7 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,8 foiz (554,5 ming bosh), qo'y va echkilar 102,0 foiz (4850,5 ming bosh), otlar 103,1 foiz (34,9 ming bosh), parrandalar 100,7 foizni (6498,4 ming boshni) tashkil etdi.

2022- yil 1- oktabr holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni


	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	1 687,7	102,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	94,3	123,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1 569,4	101,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24, 0	111,7
ulardan sigirlar	554,5	102,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	35,8	131,1

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	511,0	101,0
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,7	122,1
Qo‘y va echkilar	4850,5	102,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	359,8	123,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	4189,7	100,5
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	301,0	102,8
Otlar	34902	103,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	4571	121,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	28770	100,6
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1561	104,6
Parrandalar	6498,4	100,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	501,9	152,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	4245,4	100,9
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1751,1	91,6


Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 93,0 foizni, fermer xo‘jaliklarida 5,6 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 92,1 va 6,5 foizni, qo‘ylar va echkilar 86,4 va 7,4 foizni, parrandalar 65,3 va 7,7 foizni tashkil qildi.

**2022- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shu jumladan: sigirlar (ming bosh)



Qo‘ylar va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



2022-yilning yanvar-sentabrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 228,9 ming tonna go‘sht (2021-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 102,4 foiz), 897,5 ming tonna sut (101,6 foiz), 405,8 mln. dona tuxum (116,8 foiz) ishlab chiqarildi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 98,2 foiz, sut ishlab chiqarishda 99,2 foiz, tuxum ishlab chiqarishda 65,7 foizni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>
--	----------------	--------------------------

Go‘sht (tirik vaznda), ming tn.	228,9	102,4
--	--------------	--------------

shu jumladan:

Fermer xo‘jaliklari	7,1	153,2
---------------------	-----	-------

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	217,7	101,0
---	-------	-------

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,1	118,5
--	-----	-------


Sut, ming tn.	897,5	101,6
----------------------	--------------	--------------

shu jumladan:


Fermer xo‘jaliklari	26,5	129,1
---------------------	------	-------

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	863,9	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,1	2,0 m
Tuxum, mln. dona	405,7	116,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	15,2	120,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	251,5	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	138,9	166,0

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i chovachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



Tuxum (mln. dona)




Fermer xo‘jaliklari. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 6426,3 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,9 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 28,3 foizni tashkil etdi. Dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5977,2 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,7 foizni, chorvachilik mahsulotlarining hajmi 449,1 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 140,5 foizni tashkil qildi.

Hosil yig‘imi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklar tomonidan 91203 tonna sabzavot (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (103,0 foiz) 26474 tonna kartoshka (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (98,6 foiz), 71009 tonna oziqbob poliz (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (100,4 foiz), 75913 tonna meva va rezavorlar (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (103,5 foiz), 35685 tonna uzum (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (100,9 foiz) yig‘ib olindi. Bundan tashqari 621093 tonnadan ortiq don ekinlari (105,3 foiz) yetishtirildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlari

	2021- yil yanvar-sentabr		2022- yil yanvar-sentabr		2021- yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Don	589999	84,3	621093	81,0	105,3
Kartoshka	26838	18,2	26474	17,8	98,6
Sabzavotlar	88515	22,1	91203	22,6	103,0
Poliz	70710	44,7	71009	44,6	100,4
Meva va rezavorlar	73380	52,5	75913	52,7	103,5
Uzum	35364	46,6	35685	45,6	100,9

Yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik. 2022- yilning yanvar-sentabrdan fermer xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 7079 tonna go‘sht (2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 153,2 foiz), 26558 tonna sut (129,1 foiz), 15229 ming dona tuxum (120,5 foiz) ishlab chiqarildi.

Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari

	2021- yil yanvar-sentabr		2022- yil yanvar-sentabr		2021- yil yanvar- sentabrga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Go‘sht	4620	2,0	7079	3,0	153,2
Sut	20568	2,3	26558	2,9	129,1
Tuxum, ming dona	12634	3,6	15229	3,7	120,5

2022- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 94,3 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 35,8 ming bosh sigir, 359,8 ming bosh qo‘y va echkilar, 4,6 ming bosh ot, 501,9 ming bosh parrandalar mavjud.

Yanvar-sentabr holatiga fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari

